


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 7 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 7 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 7

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 7



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№7 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-7>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

- 1. Mo‘minjon Salayev Atabayevich**
BAQTRIYA HUJJATLARIDAGI TURKIY ISMLAR VA ULARNING TARIXIY TALQINI.....7
- 2. Tilovboyeva Mardona Aybekovna**
O‘RTA OSIYODA TOSH DAVRINING ILK BOSQICHI XUSUSIYATLARI.....19
- 3. Акрамова Ф.А.**
СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН-РАБОТНИЦ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (1946-1960 ГГ.).....22
- 4. Файзуллаев Мансур Хайруллаевич**
СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ КАРАКУЛЕВОДСТВА В ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ КОМПЛЕКСАХ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА И ЕЁ СИСТЕМНЫЕ ПРОБЛЕМЫ (1960-1980 ГГ.).....30
- 5. Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
QO‘NG‘IOTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI SIYOSIY ALOQALARI: SHAKLLANISHI, YO‘NALISHLARI VA TARIXIY AHAMIYATI.....37
- 6. Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN DIPLOMATIK VA IJTIMOY-SIYOSIY MUNOSABATLARI.....47
- 7. Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li**
“XORAZM OKRUGIDA YIRIK MEHNATSIZ XO‘JALIKLARNI TUGATISH TO‘G‘RISIDA”GI DEKRETNING TAHLILI.....56
- 8. Kenjayev Hasan Atanazarovich**
XV-XVI ASRLARDA SAROY KUTUBXONASINI BOSHQARISH AMALIYOTI: “BADOYE‘ UL-VAQOE” ASARIDAGI MANSHUR MISOLIDA.....64
- 9. Қадамбаев III.**
ЎРТА ЗАРАФШОНДА ТОШ ДАВРИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИНИ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ.....70
- 10. Matkarimova Nazokat Maksudovna, Matnazarova Dilorom Radjabbaevna**
XORAZMLIKLARNING AN‘ANAVIY MADANIYATIDA OILA VA OILAVIY ETIKET.....73

IQTISOD

- 1. Radjabova Mavluda Ergash Qizi**
MINTAQADA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI.....77
- 2. Хусаинов Джахонгир Баходирович, Мухаммадсолиев Миродилжон Мирзохид угли**
КАСКАДНО-ЦИКЛИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ЦЕНООБРАЗОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМ РИСКОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ.....84

3. Matyakubov Umidjon Raximovich, Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi, Kodirova Feruza Sodiqjonovna	
TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI: STATISTIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL ASOSIDA.....	89

FILOLOGIYA

1. Adizova Surayyo Abduxoligovna	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOGNITIV TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISH TAMOIYILLARI (TIBBIY TERMINLAR MISOLIDA).....	97
2. Shoymardanova Dilfuza Baxtiyorovna	
ERKIN VOHIDOV ASARLARIDA SINTAKTIK PARALLELIZM VA POETIK INDIVIDUALLIK.....	103
3. Khudoyshekur Makhmudov	
TOURISM DISCOURSE AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH: A COMPARATIVE LINGUISTICS PERSPECTIVE.....	107

PEDAGOGIKA

1. Sh.E.Yakubova	
“OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI KOMPETENTLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”..	112
2. Kalandarova Madina Baxadirovna	
IJTIMOIIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDAGI AYOLLAR HAYOT SIFATI BILAN BOG'LIQLIGI.....	116
3. Kasimova Xulkar Atabayevna	
NOGIRON FARZANDLI TURLI YOSHDAGI ONALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA EMOTSIONAL O'ZINI-O'ZI NAZORAT QILISH O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LANISHLAR.....	120
4. Абибуллаев Арсен Редванович	
ОСОБЕННОСТИ ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕДУР СЕМИБОРОК В СТРУКТУРЕ ТРЕНИРОВОЧНОГО И СОРЕВНОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА.....	124
5. Шарипова Мадина	
ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ АДАПТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	129
6. Pulatova Zulfiya Abduazizovna	
OLIIY HARBIY TA'LIM DA KURSANTLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI BAHOLASH METODIKASINI HKT-INDEKSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	136
7. Xasanboyev Javohir	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA JADID PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	145

Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o'g'li
 Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
 davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
 sarvarbekmatniyozov@gmail.com

“XORAZM OKRUGIDA YIRIK MEHNATSIZ XO‘JALIKLARNI TUGATISH TO‘G‘RISIDA”GI DEKRETNING TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21979990>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston SSR tarkibidagi Xorazm okrugida 1928-1929-yillarda o‘tkazilgan yer-suv islohotlari jarayonlarida huquqiy asos bo‘lib xizmat qilgan “Xorazm okrugida yirik mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish to‘g‘risida”gi dekret va uning normalari izohlangan. Yer-suv islohotining mazmuni va amalga oshirish jarayonlari manbalar hamda arxiv hujjatlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qurbon Beregin, okrug, chorikor, batrak, Devonbegi, kredit, kollektiv, sudxo‘r, tanob, Burnashev.

Аннотация: В данной статье разъясняются нормы декрета “О ликвидации крупных нетрудовых хозяйств в Хорезмском округе”, послужившего правовой основой процессов земельно-водных реформ, проведенных в 1928–1929 годах в Хорезмском округе Узбекской ССР. Содержание и процессы реализации земельно-водной реформы проанализированы на основе источников и архивных документов.

Ключевые слова: Курбан Берегин, округ, чарикор, батрак, диванбеги, кредит, коллектив, ростовщик, танап, Бурнашев.

Abstract: This article explains the provisions of the decree “On the Liquidation of Large Non-Laboring Farms in the Khorezm Okrug” which served as the legal basis for the land and water reforms carried out in 1928–1929 in the Khorezm Okrug of the Uzbek SSR. The content and implementation processes of the land and water reform are analyzed on the basis of historical sources and archival documents.

Keywords: Kurban Beregin, okrug, charikor, batrak, Divanbegi, credit, collective, usurer, tanap, Burnashev.

Kirish. XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmida O‘zbekiston SSR hududining barcha mintaqalarida, xususan Xorazm okrugida sovet hokimiyati tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishiga sabab bo‘lgan yer-suv islohotlari (1928–1929-yillar) amalga oshirildi. Ushbu islohotning asosiy g‘oyaviy va siyosiy maqsadi yirik yer egaligini cheklash, sobiq hukmron tabaqalar ta’sirini tugatish hamda yersiz va kam yerli dehqonlarni yer bilan ta’minlash orqali qishloqda sovet hokimiyatining ijtimoiy tayanchini mustahkamlashdan iborat bo‘lgan. 1925-yil 2-dekabrda O‘zSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi “Yer va suvni milliyalashtirish to‘g‘risida” qaror

qabul qilgan edi. Shu asosda dastlab 1925–1926-yillarda Farg'ona, Toshkent va Samarqandda, keyinchalik 1927-yilda Zarafshon vohasida va 1928–1929-yillarda Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm okruglarida yer-suv islohotlari o'tkazildi.

Metodlar va o'rganish natijalari. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan 1928-yil 2-dekabrda qabul qilingan “Xorazm okrugida yirik mehnatsiz xo'jaliklarni tugatish to'g'risida” gi dekretida Xorazmda o'tkazilishi belgilangan yer-suv islohotlarining huquqiy asoslari ko'rsatilgan[1]. Ushbu davrda jamoat arbobi sifatida faoliyat olib borgan Qurbon Beregin Xorazmda yer-suv islohotlari va mehnatsiz xo'jaliklarni tugatilishi jarayonlarini “Xorazm okrugida mehnatsiz xo'jaliklarni tugatish yakunlari” nomli asarida batafsil yoritib bergan[2]. Arxiv xujjatlari Xorazm okrugida o'tkazilgan yer-suv islohotlari jarayonlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Xorazm okrug ijroiya qo'mitasi (F.69), Xorazm okrug ijroiya qo'mitasi qoshidagi yer bo'limi (F.199) hujjatlarida mazkur jarayon to'g'risida muhim statistik ma'lumotlari jamlangan[3].

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan 1928-yil 2-dekabrda “Xorazm okrugida yirik mehnatsiz xo'jaliklarni tugatish to'g'risida” gi dekret qabul qilindi. Okrug uchun alohida dekret qabul qilinishining o'zi Xorazmdagi yer-suv munosabatlarini o'ziga xos jihatlarga ega ekanligini bildiradi.

Dekretning 1-moddasida tugatilishi lozim bo'lgan xo'jaliklar 3 ta alohida bandlarga ajratilgan:

1. Yerga muhtoj bo'lg'on yersiz va kam yerlik dehqonlarga bo'lib berish uchun quyida ko'rsatilgan guruh (kategoriya) lar butunlay olinib hukumatning yer fondiga topshirilsin:

a) Yerni o'z mehnati yoki o'z oila a'zolarining kuchi bilan ishlamasdan (mehnatsiz), quyidagi miqdorda yer maydonlaridan foydalanib turg'on xo'jaliklar: 1) Suvlik xo'jaliklar, 2) egalarining qaysi joyda turishlariga qaramasdan, xalqi tiqilinch o'tirg'on va ob-xavo jihatdan to'la ta'min qiling'on bahorigar rayonlarda ekin yerlari 45 gektardan yuqori pomeschchik, katta boy xo'jaliklar;

b) Foydalanib turg'on yerlarining miqdori qancha bo'lishiga qaramasdan sobiq xonning katta to'ralariga, katta ruhoniylariga va sobiq podishoh ma'murlariga va xon naslidan bo'lg'on shaxslarga qarashliq mehnatsiz foydalanadurg'on xo'jaliklar;

v) Foydalanib turg'on yerining miqdori qancha bo'lg'oniga qaramasdan 3, 4, 5 va undan yuqori darajalik savdo patentlari yoki 3 va undan yuqori darajalik sanoat patenti bo'ladurg'on hamma sudxo'rlik ishini o'ziga kasb etib olg'on kishilarga qarashliq xo'jaliklar[1. 2-3].

Ko'rinib turibdiki, yollanma mehnatdan foydalanadigan, 20 gektar ekin maydoni yoki 45 gektar bo'sh yeri bor xo'jaliklar, xon xonadonlari, yirik sudxo'rlar, din vakillari hamda 3-darajadan yuqori potensialga ega savdogar va mulkdorlarning yerlari, qishloq xo'jaligi inventarlari, uylari, chorva mollari hamda boshqa mol-mulklari birinchi navbatda musodara qilinishi belgilangan.

Shuningdek 1-moddaning quyidagi eslatmalari keltirilib o'tiladi:

1-eslatma. Ushbu moddaning a, b, va v bandlari ko'rsatilgan xo'jaliklarda 3-darajali (3) patent olg'on savdogarlardan boshqalarining yerlari bilan birga, qishloq xo'jalik binolari, jonsiz asboblari, ish hayvonlari va suv hayvonlari uchun tayyorlang'on yem-hashaklari musodara qilinadi.

2-eslatma. Yer ishlari xalq komissarligi Moliya xalq komissarligi bilan yerlari oling'on tegishlik bo'lg'on 3-darajali savdo patenti oladurg'on savdogarlarning hamma guruh (kategoriya)larini belgilaydigan dastur ul-amal ishlab chiqilsin.

3-eslatma. Ushbu moddaning a, b, va v bandlarida ko'rsatilgan xo'jaliklardan tugatilgusi ustidagi bor bo'lg'on butun yordamchi (podsubniy) hamma qishloq – xo'jalik korxonalari ham olinadi.

4-eslatma. Agarda okrug ijrokomi tugatilgan xo'jaliklarning egalarini mehnatkash dehqonlarga ayrija zararlik ta'sir qiladurg'on topsa, shu kishilar O'zbekiston SSR Markaziy ijroiya qo'mitasi maxsus qarori bilan o'z yerlari bo'lg'on okrug doirasidan surgun qilinishga tegishlikdirlar.

5-eslatma. 20 gektardan yuqori suvlik yerlari yoki 45 gektardan yuqori bahorikor ekinlari bo'lg'on xo'jaliklardan oilasi ko'p (4 dan ziyod) bo'lg'onlari agarda shu oilaning qishloq xo'jaligida o'zlari qishloq xo'jaliklarida shaxsiy mehnatlari bilan qatnashsalar, okrug ijrokomlariga

dekretining shu moddasig'a qaramasdan mazkur xo'jaliklarga yer qoldirish huquqi beriladi. Qoldiriladurg'on yerning miqdori yer ishlari komissarligining shu dekretining 8-moddasida ko'rsatilgan amali bilan belgilanadi[1. 3-4].

Eslatmalarda badavlat savdogarlarning ro'yxatlari shakllantirilishi, 3-darajadan yuqori bo'lgan mulkdorlarni barcha mol-mulklari musodara qilinishi belgilangan. Yirik mulkdorlar tomonidan dehqonlarga zarar yetkazilsa surgun jazosi belgilanishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga oila a'zolari soni 4 tadan ko'p bo'lgan xo'jaliklar uchun yerlarini ma'lum bir qismini saqlab qolishlari imtiyozi berilgan.

2-moddada chorvachilik bilan shug'illanuvchi xo'jaliklar uchun ma'lum miqdorda yer qoldirilishi belgilangan:

Chorvachilik kengaytirish maqsadida, garchi ushbu dekretning 1 moddasi "a" bandiga binoan tamoman tugatilishi belgilangan bo'lsa ham chorvador xo'jaliklar qo'lida shu xo'jalikni madaniy ravishda idora qilishg'a lozim bo'lg'on miqdorda yer qoldirilsin.

Eslatma. Yer ishlari xalq komissarligi chorvador xo'jaliklarga, ayrim rayonlar bo'yincha, yer qoldirish normalarini belgilasin.

3-moddada yersiz va kam yerli dehqonlarga berilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha yerlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Yersiz va kam yerli dehqonlarga bo'lib berilgusi yer fondig'a quyidagi yerlar ham topshirilsin:

a) O'zbekiston SSR Yer ishlari xalq komissarligi qarmog'ida bo'lgan davlat yeri amloki ichiga kiradurg'on yerlar;

b) Sobiq madaniy-maorif va diniy vaqf yerlari;

v) bekor yotgan, egasi o'lib ketgan xo'jaliqlar, qaydalig'i ma'lum bo'lmog'on grajdanlar va shu jumladan xozirgi vaqtgacha qaytib kelmagan qochoqlarga tegishli yerlar[1. 5].

4-moddada yer fondidagi yerlarni bo'lib berilishi to'g'risida normalar belgilangan:

Ushbu dikret tartibida, yersiz va kam yerli dehqonlarga yer bo'lib berish fondig'a kiradurg'on yerlar millati va jinsi (er-xotin) ayrimasig'a qaramasdan quyidagi tarib bo'yicha taqsim qilinsin.

Kollektiv xo'jaliqlari ravishda uyushganlarga yerning sifati va qaysi yerda bo'lishi jihatidan ustunlik (imtiyoz) berish. Barobarida, birinchi navbatda ushbu yerlarni haqiqatdan ishlab turgan chorikor va batraklarga, ikkinchi navbatda davom qilib turg'on kollektiv xo'jaliklarga, uchinchi navbatda boshqa yerlarda tashkil topib turg'on kollektiv xo'jaliklarga va undan qolg'onlarga millat hamda jinsi (er-xotin) ayrimasig'a qaramasdan boshqacha yersiz va kam yerli dehqonlarga.

Eslatma. Ushbu dikretning 1-moddasi tartibida yer bo'lib berilg'on xo'jaliklar o'rtasida bepul taqsim qilinadi, shu bilan birga ish hayvonlari, asboblari qishloq xo'jaliq imoratlari va hayvon yem-xashaklari, mazkurlar bilan haqiqatdan foydalanaib kelgan xo'jaliklarga beriladi. Musodara bo'lg'on butkul naslлик hayvonlar va yordamchi (podsubniy) qishloq xo'jaliq korxonalari shu yerlarda yangi tuziladigan va xozirg'acha davom qilib kelgan kollektiv xo'jaliklarga beriladi[1. 5].

5-moddada yangi yer olgan xo'jaliklarni ishlab chiqarish jihatidan qo'llab-quvvatlash maqsadida Qishloq xo'jalik banki orqali kredit (ish hayvonlari, asboblari, urug'lik uchun) ajratish, bu jarayonni Yer ishlari xalq komissarligi va bank birgalikda boshqarishi belgilangan:

Ushbu dekret tartibida yerga joylanadurg'on xo'jaliklarni xo'jaliq jihatidan mustahkamlash va ularning foyda olinishig'a beriladurg'on yerlarni egallashi uchun lozim bo'lgan sharoitlar tuzish maqsadida O'zbekiston SSR qishloq xo'jalik bankasiga ish hayvonlari, asboblari va urug'lik materiallari olish uchun lozim bo'lg'on uzoq muddatliq qarz ajratilishi taklif qilinsin.

Eslatma. O'zbekiston SSR ning yer ishlari xalq komissarligi qishloq – xo'jaliq bankasi bilan birlikda, ushbu dikretga muvofiq yer bo'lib berilganlarga yordam berish formasini va uning miqdorini belgilab shu yo'lda ko'riladurg'on hamma tadbirlarga kredit va pul berish planini komissarlar sho'rosi tasdig'iga topshirilsin [1. 6].

6-moddada dekretidagi barcha tadbirlar Xorazm okrugi ijroqomi orqali amalga oshirilishi belgilangan va asosiy nazorat Yer ishlari komissarligiga yuklangan.

7-moddada mehnatsiz xo'jaliklarni tugatish bo'yicha amaliy ishlar 1929-yilning 1-yanvaridan kechiktirmasdan yakunlanishi nazarda tutilgan.

8-moddada mazkur dekretning amalda qo'llanilishi yuzasidan dasturul-amal ya'ni chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishi nazarda tutilgan.

Dekretni O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi Y.Oxunboboyev, kotibi Ibrohimovlar imzolagan.

Xorazm okrugida yirik, mehnatsiz yerdan foydalanishini tugatishda qo'llash uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasida quyidagi bandlarni ko'rishimiz mumkin.

1-bandga muvofiq katta boy xo'jaliklarni tugatish vaqtida ulardan olinishi kerak bo'lgan barcha mol-mulklar va qoldirilishi mumkin bo'lgan mulklar keltiriladi.

2-band: Tugatilishi lozim bo'lgan pomeschchik tipidagi xo'jaliq egalari qatorig'a tirikchiligi butun asosiy manba bo'lib hisoblanadimi yo'qmi, yohud qishloq xo'jalig'idan boshqa daromadlari bormi, yo'qlig'ig'a qaramasdan, qishloq va shahar ahlilari kiradi. Xo'jaliklarning shu kategoriya hisobig'a kirishi, ularning ixtiyorida tugatish to'g'risidagi dekretning 1-moddasidagi "a" bandida unga bo'lgan eslatmalarda ko'rsatilgan yerning borlig'i bilan belgilanadi[1. 9].

3-bandda 20 gektardan ziyod unumdor yerlari bo'lganlarni faqat ekin maydonlari emas, balki uy-joyi, bog'i, tokzorlari va bedazorlari ham hisobga olinadi deyilgan.

4-bandda oila a'zolari ko'p bo'lgan xo'jaliklar uchun yengilliklar berilgan:

a) Ko'p oilaliq xo'jاليqlarni tugatish vaqtida oilaning har bir ishlaydigan a'zosig'a mazkur rayon uchun yer ishlari komissarligi tarafidan belgilangan mehnat normasida yer qoldiriladi;

b) Agarda oilaning har bir ishlaydigan a'zosining o'zig'a 5 jondan ko'proq oila a'zosi to'g'ri kelsa, ul vaqtida har bir ishlovchiga ikki mehnat normasig'acha bo'lg'on miqdorda yer qoldiriladi. Qolg'on ortiqcha yerlarning hammasi yersiz va kam yerli dehqonlarga yer bo'lib berish fondig'a umumiy tartibda olinadi.

c) Katta oilaliq ko'p yerli xo'jaliklarga ushbu moddaning "a" va "b" bandlari tartibida yer qoldirilg'onda yerning umumiy miqdori har jong'a yarim gektardan oshmaslig'i shart[1. 9-10]

5-bandda bahorikor ya'ni unumdor yer maydoni deb 1 gektardan 30 puddan kam hosil bermaydigan yerlar hisoblanishi nazarda tutilgan.

6-bandda xonlik davrida Mahram, Yasavul, Karvonboshi, Qushbegi, Devonbegi, Qozikalon Eshon, A'lamii eshon, Muftiy eshon, Qozi o'rda eshon, xo'ja va katta xo'ja kabi vazifalarda faoliyat yuritganlarning yerlari tamoman olinishi kerakligi belgilangan.

7-bandda yer egalarining o'zlari bevosita ishlamasdan, yerni chorikorlar (ijaradorlar) yoki yollanma ishchilar mehnati evaziga ishlatadigan xo'jaliklari tugatilishi, "inqilob" gacha bo'lgan davrda ularga tegishli yer miqdori belgilangan me'yori miqdoridan oshmagan bo'lsa va yer faqat o'z oila a'zolarining kuchi bilan ishlanayotgan bo'lsa tugatilmasligi, agar u yer atrofdagi xalqqa ayrimcha zararli ta'sir ko'rsatuvchi deb topilsa, Okrug ijroiya qo'mitasi buyrug'i bilan tugatilishi nazarda tutilgan.

8-band. "Yirik xo'jaliq egasi yohud uning oila a'zolari kuchi bilan ishlanishini" belgilash vaqtida ularning yerni ishlash ya'ni, haydash, ekish, chopish, sug'orish, ekin yig'ish va boshqalar yo'lidag'i asosiy ishlarda o'zini shaxsiy kuchi bilan haqiqatdan hamda, doimiy suratda (butun mavsum ichida) ishtirok qilishni tushunish kerak[1. 11].

9-bandga ko'ra katta mehnat yollamaydigan karvonboshilarning xo'jaliklari savdogarlar xo'jaliklari qatorida tugatiladi, shu bilan birga ularning barcha jonli va jonsiz qishloq xo'jalik asboblari tortib olinadi. Ehtiyoj uchun zarur miqdorda ularda qoldiriladi. Bu tadbirlar okrug ijroiya qo'mitasining qarori asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, agar karvonboshilar kategoriyasiga kiruvchi xo'jalik egalari atrofdagi dehqonlarga yomon ta'sir ko'rsatayotgan shaxslar bo'lsa, ular okrug ijrokomining qarori va O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumining tasdig'i bilan surgun qilinadi.

10-bandda Sudxo'rlar deb kimlarga aytilishi haqida ma'lumot beriladi.

11-bandda tugatilishi belgilangan (3-daraja savdogar xo'jaliklaridan boshqa) xo'jaliklarga qarashli jonli va jonsiz qishloq xo'jalik asboblari, vaqtincha boshqa shaxslarga foydalanish yoxud ijara asosida berilganidan qat'i nazar, musodara qilinishi lozim bo'lgan. Biroq xo'jalik egasining

yashashi uchun zarur bo'lgan bitta turar joy saqlab qolinishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi faoliyatiga bevosita aloqador bo'lmagan sanoat korxonalari hamda shahar hududidagi imoratlar musodara doirasidan chiqarilishi belgilangan[1. 12].

12-band. Hayvonlar uchun tayyorlangan yem-xashak zaxirasidan beda, poya, somon va jo'xori faqat mazkur xo'jalikdan musodara qilingan hayvonlar uchun zarur bo'lgan miqdorda komissiya tomonidan belgilangan normada qoldiriladi[1.13]

13-band. Xo'jalik egasining shaxsiy foydalanishidagi aravasi, uy-ro'zg'orida va shaxsiy ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan buyumlari, shuningdek, meva, don, tovar, material va boshqa zaxiralari xo'jalikdan musodara qilinmaydi.

14-band. Dekretning 2-moddasiga muvofiq imtiyoz beriladigan xo'jaliklar qatoriga mehnat sarfi va hosildorlik jihatidan asosiy faoliyati chorvachilikdan iborat bo'lgan xo'jaliklar ham kiritilgan. Mazkur xo'jaliklarning barchasiga tegishli rayonlar uchun belgilangan mehnat me'yori doirasida yer ajratiladi. Ushbu xo'jaliklardan ortiqcha yer bilan bir qatorda, ularga qoldirilgan yer maydonining miqdoriga qarab Yer ishlari komissarligi tomonidan belgilangan me'yordan ortiq bo'lgan ish hayvonlari ham olib qo'yiladi.

Mazkur xo'jaliklarda "ish hayvoni" sifatida faqat dalalarni haydash va ishlash uchun doimiy ravishda foydalanib kelingan ot va ho'kizlar hisobga olinadi.

Eslatma: Chorvador xo'jaligiga Dekretning 2-moddasini qo'llash huquqini berish uchun poda miqdori, foydalanilayotgan yer maydoni va hayvonlarning zotidan qat'i nazar, xo'jalikda kamida 15 ta biya yoki 250 ta urg'ochi qo'y yoki 15 ta sigir bo'lishi shart[1. 14].

15-band. Dekretning 3-moddasiga muvofiq taqsimlab beriladigan yer fondini aniqlashda quyidagi mezonlarga amal qilinsin:

a) Egasiz xo'jaliklar deb, egasi va uning barcha oila a'zolari xalq hamda qishloq sho'rosi tomonidan olingan aniq ma'lumotlarga ko'ra vafot etgan deb hisoblangan xo'jaliklar sanaladi.

b) Egasining qayerdaligi noma'lum bo'lgan xo'jaliklar jumlasiga xo'jalik egasi - xo'jalik boshlig'i va uning oila a'zolari - qayerdaligi noma'lum bo'lgan hamda so'nggi uch yil davomida o'zlariga qarashli yerga egalik qilmagan xo'jaliklar kiritiladi.

v) Sun'iy ravishda bo'lingan xo'jaliklar deb, o'z yer maydonini 1925-yil 2-dekabrda keyin qishloq sho'rolari va yer idoralarida belgilangan tartibda rasmiylashtirmagan holda bo'lib yuborgan xo'jaliklar hisoblanadi[1. 14].

16-band. Dekretning 4-moddasiga muvofiq, yersiz va kam yerli dehqonlarga yer ajratish ishlari yer fondini shakllantirish bilan bir vaqtda amalga oshirilishi lozim.

17-band. Chorikorlar va o'zlari mehnat qiladigan ijarachilar toifasiga faqat o'zlari ijaraga olgan yerni shaxsan yoki oila a'zolarining mehnati bilan ishlaydigan chorikor va ijarachilar kiradi.

Eslatma: Ijaraga olingan yerlarni boshqa shaxslarga qayta ijaraga beradigan yoki yollanma mehnat orqali ishlatadigan ijarachilarga yer biriktirilmaydi. Bunday hollarda mazkur yer ushbu yer maydonini ijaraga olib, haqiqatda o'zi mehnat qiladigan boshqa ijarachilar yoki chorikorlarga biriktiriladi[1. 15].

18-band. Davlat yer mulki fondiga kirgan yerlar Dekretning 4-moddasida belgilangan navbat tartibiga qat'iy rioya qilingan holda taqsimlanadi. Dekretda belgilangan navbat asosida yer taqsimlash vaqtida yerning sifati va joylashuvi jihatidan yaxshi bo'lgan maydonlar o'sha yerda mehnat qilayotgan chorikorlar, batraklar va o'z mehnati bilan ishlaydigan ijarachilardan kollektiv xo'jalik shaklida uyushganlarga beriladi.

O'sha hududda yashab, biror sababga ko'ra kollektiv xo'jaliklarga kirishni istamagan chorikorlar, batraklar va ijarachilarga esa o'sha yerning o'zidan kollektiv xo'jalikning bir a'zosiga to'g'ri keladigan miqdordan kam bo'lmagan, biroq belgilangan mehnat me'yoridan oshmaydigan hajmda yer uchastkasi ajratiladi.

Chorikor, batrak va ijarachilarga yer biriktirish vaqtida har biriga ajratiladigan yer miqdori, bir tomondan, ularning avvalgi xo'jayinlaridan musodara qilingan yer maydoni hajmiga, ikkinchi tomondan esa ushbu yerda mehnat qilgan chorikorlar, batraklar va mehnat qiluvchi ijarachilarning umumiy soniga qarab belgilanadi.

Bunda har bir shaxsga ajratiladigan yer maydori uning ilgari mavjud bo'lgan yer maydoni bilan birgalikda belgilangan mehnat me'yorida oshmasligi lozim. Ortiqcha qolgan yerlar boshqa batraklar, yersiz va kam yerli dehqonlarga ajratiladi.

Mazkur yer fondidan, birinchi navbatda, faoliyat yuritib kelayotgan va yangidan tashkil etilayotgan kollektiv xo'jaliklar, shuningdek, harbiy xizmatda bo'lgan yoki xizmatdan bo'shatilgan Qizil armiya askarlari xo'jaliklari hamda xotin-qizlar xo'jaliklariga yer ajratish uchun uchastkalar belgilanadi.

Eslatma: Xotin-qizlar xo'jalik boshlig'i hisoblangan hollarda ular erkak xo'jalik boshliqlariga beriladigan barcha huquqlardan foydalanadilar. Shuningdek, ularga yer taqsimlash masalasida imtiyozlar berilishi mumkin[1. 16].

19-band. Haqiqatan harbiy xizmatda bo'lgan yoki xizmatdan bo'shatilgan Qizil armiya askarlaridan tugatilishi lozim bo'lgan xo'jaliklar tarkibiga kiradigan xo'jaliklarga, belgilangan yer taqsimoti me'yori doirasida, yer, imoratlar, ish hayvonlari va zarur qishloq xo'jaligi asbob-uskunalarini qoldiriladi.

20-band. Yer fondini taqsimlash vaqtida yerga muhtoj bo'lgan, ya'ni yangidan tashkil etilayotgan va ilgari faoliyat yuritib kelgan kollektiv xo'jaliklarni yer bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu maqsadda yangidan yer ajratilgan xo'jaliklarni kollektiv xo'jaliklarga jalb qilish zarur.

Shuningdek, faoliyat yuritib kelayotgan kollektiv xo'jaliklarga, agar ularda bunga ehtiyoj mavjud bo'lsa, qo'shimcha yer maydonlari ajratilishi lozim[1. 17].

21-band. Vaqf va davlat yer mulkiga kiruvchi yerlar Dekret va dastur ul-amalning 18-bandda belgilangan navbat tartibiga muvofiq, ulardan amalda foydalanib kelayotgan shaxslarga taqsimlanadi. Biroq har bir xo'jalikka ajratiladigan yer miqdori belgilangan mehnat normasidan oshmasligi lozim.

Mazkur yerlardan tegishli yer idoralarida rasmiylashtirilmagan holda foydalanayotgan hamda ularni ijara asosida ishlatayotgan xo'jaliklarga ham belgilangan me'yordan ortiq yer ajratilmaydi.

Davlat vaqf yerlarida belgilangan me'yordan ortib qolgan yer maydonlari esa yerga muhtoj bo'lgan boshqa xo'jaliklar o'rtasida taqsimlanadi.

22-band. Dekretning 5-moddasi asosida yer ajratilgan xo'jaliklarni moliyaviy jihatdan ta'minlash faqat tegishli qishloq xo'jaligi shirkatlari orqali amalga oshiriladi. Bunda mablag'lar tegishli rayon yer komissiyalari tomonidan berilgan order va bayonnomalar asosida ajratiladi.

23-band. Har bir yangi tashkil etilgan xo'jalikni qishloq xo'jaligi asbob-uskunalarini bilan ta'minlash uchun uzoq muddatli kredit ajratiladi. Kreditning belgilangan umumiy me'yori 255 so'm bo'lib, quyidagi ehtiyojlar uchun sarflanishi nazarda tutiladi: Ish hayvoni - 1 bosh, narxi 150 so'm, bir toshliq Yevropa omochi 28 so'm, six mola 22 so'm, qo'shuv anjomlari esa 18 so'm, ketmon 6 so'm, o'roq esa 1 so'm[1. 18].

Yevropacha qishloq xo'jaligi asbob-uskunalarini rivojlantirish va ularni dehqonlar orasida joriy etish maqsadida qishloq xo'jaligi shirkatlariga Yevropa omochlari, mola va qo'shuv anjomlari beriladi. Agar dehqonlar mazkur asbob-uskunalarini olishdan bosh tortsalar, ularga mahalliy qishloq xo'jaligi asbob-uskunalarini sotib olish uchun kredit berilishi lozim.

1-eslatma. Yuqorida ko'rsatilgan kredit me'yori yakka xo'jaliklarga ham, kollektiv xo'jaliklarga ham bir xil miqdorda belgilanadi.

2-eslatma. Yangidan tashkil etilayotgan kollektiv xo'jaliklar uchun traktor va boshqa zarur texnikalarni sotib olishga qo'shimcha kreditlar qishloq xo'jaligi kooperatsiyasining rayon ittifoqi huzuridagi qishloq xo'jaligi seksiyasi tomonidan belgilanadi hamda kollektiv xo'jaliklarni kredit bilan ta'minlashning belgilangan tartibi asosida amalga oshiriladi.

3-eslatma. Yerlarni 18-band tartibida kollektiv xo'jaliklar tashkil etilgan taqdirda, tugatilayotgan xo'jalikda mavjud bo'lgan barcha qishloq xo'jaligi asbob-uskunalarini xo'jalik ehtiyojlari va ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur miqdorda mazkur kollektiv xo'jalik ixtiyorida saqlab qolinadi. Bunday hollarda kollektiv xo'jaligiga beriladigan umumiy kredit miqdori taxminan xususiy xo'jaliklarga ajratiladigan kreditlar miqdori asosida belgilanadi.

Dastur ul-amal (chora-tadbirlar rejasi) O'zbekiston SSR Yer ishlari xalq komissari Burnashev, kotibi Qurbonov tomonidan imzolangan[1. 19].

1928-yil 8-dekabrda Xorazm okrugi Ijroiya qo'mitasi mehnatkash dehqon va ishchilarga murojaat qilib, ularni yirik mehnatsiz yer foydalanishini tugatish jarayonida faol qatnashishga chaqirdi. Shu maqsadda okrug va tuman yer komissiyalari tuzildi. Ular musodara qilingan yer, bino, asbob-anjom va chorva mallarini mehnatkash dehqonlarga bo'lib berib, ularni tegishli ishonch guvohnomalari bilan mustahkamladilar.

Xorazm okrugi yirik mehnatsiz yerdan foydalanishni tugatish siyosati, asosan, ikki davrga bo'linadi:

Birinchi (tayyorgarlik) davri — 1928-yil 8–25-dekabr kunlarini o'z ichiga oladi. Bu bosqichning asosiy maqsadi yersiz va kam yerli dehqonlarni partiya hamda hukumat atrofida jipslashtirish, yirik mehnatsiz yer egalari mol-mulkini aniqlash va o'rta hol dehqonlarni ham ushbu jarayonga jalb qilishdan iborat edi. Shu maqsadda 443 ta joyda yig'ilish hamda namoyishlar tashkil etilib, ularda 19 550 nafar yersiz va kam yerli dehqon qatnashdi. Shuningdek, ushbu siyosatga qarshi chiqqani uchun 18 boy, 14 xon amaldori, 10 ruhoni, 8 savdogar va sudxo'r — jami 55 dan ortiq kishi okrugdan badarg'a qilindi [2. 44-45].

Ikkinchi davr — 1928-yil 29-dekabr 1929-yil 15-martgacha davom etdi. Bu davrda 200 nafar sobiq xon amaldorining 494 tanob, 52 nafar dindorning 776 tanob, 141 nafar savdogarning 1039 tanob, 126 boy xo'jalikning 4347 tanob va 13 sudxo'r xo'jaligining 337 tanob yeri musodara qilindi. Bundan tashqari, ularga qarashli qishloq xo'jaligi inventarlari, 407 ta asbob-anjom, 129 ta yordamchi korxona, 492 ta bino va 606 bosh ishchi hayvonlar tortib olindi[2. 45].

Xulosalar. Dekretida belgilangan normalar Xorazmda o'tkazilgan yer-suv islohotining huquqiy-ma'muriy mexanizmlar asosida amalga oshirilganini ko'rsatadi. Islohot yirik xo'jaliklarning ishlab chiqarish vositalarini musodara qilish bilan bir qatorda, xo'jalik egalari shaxsiy ehtiyojlari uchun zarur mol-mulkni saqlab qolishni ham nazarda tutgan. Chorvachilik xo'jaliklariga aniq miqdoriy mezonlar qo'llanilgan, "egasiz" va "sun'iy bo'lingan" xo'jaliklar alohida toifaga ajratilgan. Yer taqsimotida yersiz va kam yerli dehqonlarni ta'minlash, bevosita mehnat qiluvchi ijarachi va chorikorlarga ustuvorlik berish, kollektiv xo'jaliklarni kengaytirish, harbiy xizmatchilar va ayollar boshchiligidagi xo'jaliklarga imtiyozlar berish kabi ijtimoiy yo'nalishlar ham mavjud bo'lgan. Bundan tashqari, yangi xo'jaliklarni uzoq muddatli kredit, ish hayvonlari va zamonaviy qishloq xo'jaligi asbob-uskunolari bilan ta'minlash siyosati ham olib borilgan. Islohot "musodara - yer fondini shakllantirish - qayta taqsimlash - yangi xo'jaliklarni ta'minlash" tarzidagi uzviy zanjir asosida tashkil etilgan bo'lib, u nafaqat agrar munosabatlarni, balki qishloq hududining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini ham tubdan o'zgartirishga qaratilgan siyosiy-iqtisodiy jarayon sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Xorazm okrugi mehnatsiz yerdan foydalanishni tugatish bo'yicha" dekret. Samarqand. 1928-yil
2. Beregin Q. Xorazm okrugi mehnatsiz xo'jaliklarni tugatish yakunlari. — "Samarqand", - T., 1930. 44-45-bet.
3. Xorazm viloyati davlat arxivi 69-fond., Xorazm viloyati davlat arxivi 199-fond.
4. Хоразм тарихи. 2-жилд. Масъул муҳаррир М.Матниёзов. - Урганч: Хоразм, 1997.
5. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917 – 1939 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. – Т.: —О'zbekiston, 2019.
6. Хусаинбекова Г. М. Хоразм воҳасидаги маданий жараёнлар (1925-1941 йй.) номзодлик диссертацияси. – Тошкент. 2011.
7. Алимов И. Ўзбекистонда вақф мулкларининг тугатилиши тарихи (1917 - 1929 йй.). - Тошкент: «Фан», 2009. - 224 б.
8. Аминова Р.Х. Аграрные преобразования в Узбекистане накануне сплошной коллективизации. (1925-1929)

9. Зайченко Ж.А. Классовая борьба в узбекском кишлаке.(1925-1929 гг). Т.. "Узбекистан", 1989.
10. Юсупов К. Победе колхозного строя в Хорезмской области Узбекской ССР(1927-1934). Автореферат канд.дисс.-1968.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatarga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].